



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI


**2023- YIL YANVAR-MAY**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- iyun holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 34 410 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 6 891 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,0 % i Toshkent shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-iyun holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda




Toshkent sh.	6 891
Farg‘ona	2 900
Toshkent	2 868
Qashqadaryo	2 771
Buxoro	2 565
Samarqand	2 442
Surxondaryo	2 434
Andijon	2 199
Qoraqalpog‘iston R.	1 809
Xorazm	1 711
Namangan	1 638
Jizzax	1 568
Navoiy	1 451
Sirdaryo	1 163




Shuningdek, Toshkent shahrida 6 891 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 20,0 %), Farg‘ona viloyatida – 2 900 ta (8,4 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-may uchun)

2023- yilning yanvar-may oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 52 140,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi.




*Ma'lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda




2023- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (13 199,3 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (4 563,8 mlrd. so‘m) va Qashqadaryo viloyatida (3 417,4 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,3 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,6 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,2 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



## 2023- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 66,7 % i yoki 34 759,9 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**10 396,1**  
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 10 396,1 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 29,9 % ni tashkil etdi.

**29,9 %**

**17 153,4**  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 17 153,4 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 49,4 % ni tashkil etdi.

**49,4 %**

**7 210,4**  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 7 210,4 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 20,7 % ni tashkil etdi.

**20,7 %**

### Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi

**18 999,0**  
mlrd. soʻm



**27 122,2**  
mlrd. soʻm



**66,2 %**




**34 749,9**  
mlrd. soʻm



## 2023- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


2023- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (7 672,5 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (2 472,8 mlrd. so'm), Samarqand viloyati (2 239,7 mlrd. so'm) va Qashqadaryo viloyatida (2 111,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 35 479,9 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,6 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamayib, 51,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'payib, 23,0 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*



*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 81,4 % i), Andijon viloyati (78,0 %) va Farg'ona viloyati (75,8 %)da kuzatildi.



Jizzax viloyati  
81,4 %




Andijon viloyati  
78,0 %



Farg'ona viloyati  
75,8 %

## 2023- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

### Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm



**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,1 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,8 % (5,0 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

# 2023- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

10 593,1

607,8

227,9

564,0

152,5

626,8

528,0

208,9

2 258,0

487,6

286,8

1 068,1

609,3

529,1

2 438,3

Oʻzbekiston Resp.

Qoraqalpogʻiston Resp.

Andijon

Buxoro

Jizzax

Qashqadaryo

Navoiy

Namangan

Samarqand

Surxondaryo

Sirdaryo

Toshkent

Fargʻona

Xorazm

Toshkent sh.

## Maʼlumot uchun:

Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 69,1 % i), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (30,5 %) va Xorazm viloyati (29,9 %)da kuzatildi.




69,1 %

Samarqand viloyati



30,5 %

Qoraqalpogʻiston Respublikasi




29,9 %

Xorazm viloyati

# 2023- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi va 17,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 82,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

# 2023- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



### Ma'lumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 20,8 % i), Toshkent viloyati (19,9 %) va Toshkent shahrida (18,2 %) kuzatildi.



**20,8 %**  
Namangan viloyati



**19,9 %**  
Toshkent viloyati




**18,2 %**  
Toshkent sh.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**102,2 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**106,3 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**103,0 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 12 496,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,7 % ga kamayib, 24,0 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi




22,8 %

Toshkent sh.



21,5 %

Qashqadaryo viloyati




18,2 %

Samarqand viloyati


*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toshkent shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 22,8 % i), Qashqadaryo viloyati (21,5 %) va Samarqand viloyatida (18,2 %) qayd etildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,4 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etgan holda 31 472,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m



## Jamiga nisbatan ulushi




9 163,3  
mlrd. so‘m

Toshkent shahri



2 914,3  
mlrd. so‘m

Toshkent viloyati



2 391,6  
mlrd. so‘m

Samarqand viloyati

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (9 163,3 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (2 914,3 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (2 391,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.




# 2023- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,6 % ni yoki 8 171,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Shundan 5 954,0 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1 256,4 mlrd. soʻmni va 106,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 961,2 mlrd. soʻmni va 85,4 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



**1 025,9** mlrd. soʻm  
Toshkent shahri



**925,6** mlrd. soʻm  
Toshkent viloyati



**775,0** mlrd. soʻm  
Buxoro viloyati

*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (1 025,9 mlrd. soʻm), Toshkent viloyatida (925,6 mlrd. soʻm) va Buxoro viloyatida (775,0 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-may oylaridagi *hajm, mlrd. so'mda*

2019-y.



1 363,1



26 949,6

2020-y.



1 436,8



33 333,7

2021-y.



1 973,7



36 379,9

2022-y.



1 207,1



44 475,2

2023-y.



1 666,9



50 473,8

■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 1 666,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 50 473,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 3,3 % va 96,7 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 % i), Surxondaryo viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,4 % i) va Andijon viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi  
Tel. 71 203-80-00 (1161)**